

## O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2021- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 320,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba


uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.

### **Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi** (2021- yil 1- oktabr holatiga qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

(dastlabki qayta hisoblangan)

	<b><i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda</i></b>
<b>Qashqadaryo viloyati bo'yicha - jami</b>	<b>2 320,1</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	3 677,1
Qurilish	3 000,7
Savdo	2 187,6
Tashish va saqlash	3 264,9
Axborot va aloqa	3 090,7
Moliya va sug'urta faoliyati	5 678,8
Ta'lim	1 986,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 701,5
Boshqa faoliyat turlari	2 452,5

**O‘rtacha oylik ish haqining tarmoqlar kesimida, ming so‘m**  
(2021- yil 1- oktabr holatiga)




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat tumanlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori G‘uzor tumanida 3 085,7 ming so‘mni (133,0 %), Qarshi shahrida 3 045,8 ming so‘mni (131,3 %) va Muborak tumanida 2895,9 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 124,8 %), tashkil etgan bo‘lsa, Yakkabog‘ tumanida 1701,9 ming so‘mni (73,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi hududlar kesimida <sup>1)</sup>**  
(2021- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>Mehnat resurslari soni</i>	<i>O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (mingso‘mda)</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>x</b>	<b>2 320,1</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	x	3 045,8
Shahrisabz	x	2 089,6
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	x	3 085,7
Dehqonobod	x	2 187,4
Qamashi	x	1 702,5
Qarshi	x	1 794,8
Koson	x	1 980,5
Kitob	x	1 758,7
Mirishkor	x	1 806,4
Muborak	x	2 895,9
Nishon	x	2 215,5
Kasbi	x	1 882,0
Chiroqchi	x	2 045,9
Shahrisabz	x	2 094,8
Yakkabog‘	x	1 701,9

<sup>1)</sup>dastlabki ma’lumot

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 822,0 ming so'mni tashkil etgan. Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 18- yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.